

AMERIKA MATBUOTIDAGI NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Siyosiy atamalar asosida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10366866>

Salomat NIZAMOVA,

Oriental universiteti stajor - o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola siyosiy atamalar asosida yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan so‘zlar – neologizmlarning shakllanishi va tarjimai muammosiga bag‘ishlangan. Unda neologizmlarni shakllantirishning bo‘layotgan neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: neologizmlar, matbuot tili, shakllanish usullari, so‘z qo‘shish, jargon, siyosiy atamalar, siyosiy tushunchalar, yangi ma’nolar, asosiy xususiyatlar.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме образования и перевода новых, ранее неизвестных слов-неологизмов на основе политических терминов. Рассматриваются наиболее распространенные способы образования неологизмов, особенности перевода неологизмов, появляющихся в прессе США, на узбекский язык.

Ключевые слова: неологизмы, язык прессы, способы образования, сленг, политические термины, политические понятие, новые значения, основные признаки.

Abstract. This article is devoted to the problem of formation and translation of new, previously unknown words – neologisms based on political terms. It examines the most common ways of forming neologisms, the specific features of translating neologisms appearing in the US press into Uzbek.

Keywords: neologisms, press language, method of formation, adding words, slang, political terms, political concepts, new meanings, main features.

Kompyuterlashtirish, axborotlashtirish, globallashtirish va boshqa shu kabi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega omillar ta’sirida zamonaviy til madaniyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aks ettirish vositasi sifatida yangi lug‘atni o‘rganish zarurati, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanishning o‘tish davrida til o‘zgarishlari muammosi ilmiy tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanishi, siyosiy lug‘atni uzatishda tarjimonlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning ko‘pligi muammoning juda keskin ekanligini ko‘rsatmoqda va shu jihatdan lingvistik

tadqiqotlarda siyosiy lug‘at tarjimasiga katta e‘tibor berilishi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlarni shakllanish usullarini (siyosiy atamalar asosida) berish, siyosiy atamalarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsad qilib belgilangan.

Ingliz tilshunosi J. Aito neologizmlarning vujudga kelish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi: “Har o‘tgan yil hali nomi mavjud bo‘lmagan yangi g‘oyalar, tajriba va ixtirolarni bizga taqdim etadi, zero ular, kommunikatsiya mexanizmida nomlari almashtirib bo‘lmaydigan uzviy qism hisoblanib, tez orada ularni yasalishiga bo‘lgan bizning tabiiy insoniy moyilligimiz aksariyat yetishmovchiliklarni to‘ldiradi” [1].

Neologizmlarni shakllantirishda tilda mavjud bo‘lgan usullari – affiksatsiya, so‘z qo‘shish, qisqartirish, konvertatsiya, semantik hosila va boshqalar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, neologizmlar - otlarni hosil qilish uchun -ing va -ism qo‘shimchalari ishlatiladi: gazetting – rasmiy hukumat matbuotida nashr etish”, bufferism – “konservativligi uchun keksa odamlarni kamsitish”

Yangi fe‘llarni yaratishda ko‘pincha -ize qo‘shimchasi qo‘llaniladi: to anonymize – “aniq bir shaxsning biror narsa bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi har qanday ma‘lumotni yo‘q qilish”, to weaponize – “quroldan foydalangan holda biron bir harakatni sodir etish”. Eng sarmahsul prefikslarga de-, re- va cyber kabilar kiradi. Ular yordami bilan yangi to decompress – “bosimni kamaytirish”, reflag – “bayroqni o‘zgartirish” va cybercrime – “Internet jinoyati”.

Biroq, neologizmlarni shakllantirishning eng universal va keng tarqalgan usullaridan biri bu so‘z qo‘shilishi bo‘lib, so‘z qo‘shish jarayoni ikki o‘zakning birlashishi orqali amalga oshadi. Masalan, think-tank – “tahlil markazi” (yoki “jamoamiyasi”). Omnishambles neologizmi ham so‘z qo‘shish usuli yordamida yasalgan, u lotincha omni- old qo‘shimchasi va inglizcha shambles so‘zidan tashkil topgan bo‘lib, “batamom vayrongarchilik” deb tarjima qilinadi. Yoki, masalan, ikki twitter va sphere so‘zlarining birlashuvidan hosil bo‘lgan twittersphere so‘zi ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi odamlarning makon yoki muhiti Twitter”ni bildiradi [2].

Neologizmlarni tarjima qilishga kelsak, bu tarjimonlar uchun juda murakkab ish, chunki bunday so‘zlarning ekvivalentlari ko‘pincha lug‘atlarda mavjud emas va tarjimon ularni mustaqil ravishda tarjima qilishi lozim bo‘ladi.

Ommaviy kommunikatsiyalar davrida neologizmlarning rivojlanishi va tarqalishi uchun haqiqatan ham misli ko‘rilmagan imkoniyatlar mavjud. Buning yaqqol dalili – zamonamizning matbuot tili hisoblanadi. Amerika matbuotining tili deyarli har kuni neologizmlar bilan boyib bormoqda. Biroq, ularning ko‘pchiligi “bir kunlik neologizmlar” bo‘lib qolsa, boshqa “eksrompt (tayyorgarlik ko‘rmasdan, birdaniga yozilgan) so‘zlar” esa asta-sekin asosiy lug‘atga o‘tadi. Bular, xususan,

(hozirda keng tarqalgan) soʻz va iboralar: sweat shop – ogʻir mehnat tizimi mavjud boʻlgan korxonalar; trouble shooter – muammolarni hal qilish vakolatiga ega boʻlgan shaxs; dark horse – qora ot, yaʼni saylov kampaniyasi paytida kutilmaganda biron bir lavozimga koʻrsatilgan nomzod; favorite son – oʻz shtat delegatsiyasi tomonidan (partiyaning saylovoldi sʼezdida) prezidentlikka koʻrsatilgan nomzod; boondoggling – bir paytlar jargon deb tasniflangan soʻz boʻlib, hozir siyosiy leksikada “ bemaʼni ishlar bilan shugʻullanmoq” maʼnosi bilan keng tarqalgan; hooverize atamasi tom maʼnoda “Guverga koʻra yashash”, yaʼni “oziq-ovqatni tejash”, “kam ovqat isteʼmol qilish” degan maʼnolarni anglatadi.

“Neologizmlar deyarli har doim anonim tarzda kelib chiqishga ega boʻlib, ular odatda, dastlab, soʻzlashuv vositasida va jurnalistikada paydo boʻladi” [3]

Pork barrel iborasi bir vaqtlar Amerika jargonining bir qismi edi. Biroq, endi bu umumeʼtirof etilgan siyosiy atama boʻlib, “choʻchqa yogʻi bochkasi”, “ozuqa bochkasi”, “hukumat pirogi”, yaʼni hukumat tomonidan keng omma orasida mashhurlik qozonish maqsadida maxsus oʻtkaziladigan tadbirlar maʼnosini bildiradi. Hozirda juda “munosib” siyosiy atama lame duck bir vaqtlar faqat siyosiy jargon sifatida tanilgan. Hozirgi kunda lame duck atamasi “yutqazgan siyosatchi”, “omadsiz odam” maʼnolarida qoʻllaniladi.

Sky marshal neologizmining paydo boʻlishini kuzatish qiziq. Bu soʻz samolyotlar zoʻravon-bosqinchilar (highjackers) tomonidan oʻgʻirlab ketish avj olgan paytda paydo boʻlgan. Qoʻshma Shtatlardagi zoʻravonlik bilan tortib olish va samolyotlarni olib qoʻyish toʻlqini “potensial qaroqchining profili” (highjacker profile determination)ni aniqlash boʻyicha hayotda maxsus fanni kelib chiqishiga sabab boʻldi. Shunga koʻra, bu sohaga tegishli hissiy jihatdan boʻyoqlangan, qoʻpol ekspressiv frazeologik birliklardan iborat koʻplab yangi soʻzlar va tushunchalar – lunatic fringe i little old lady in tennis shoes neologizmlar paydo boʻldi. Bu soʻzlar anʼanaviy siyosiy atama extremist – ekstremist bilan taxminan bir xil maʼnoga ega. Ushbu soʻzlar guruhiga nuts and cooks – oʻta reaksionerlar; diehards – kallavaramlar; dinosaur wing – “dinozavr qanoti”, yaʼni eski qarashlarga ega boʻlgan odamlar guruhi; hidebounds – tor siyosiy dunyoqarashga ega shaxslar; moss-backs – oʻta konservatorlar va old fogies – eski konservatorlar. kabi “qanotli” neologizmlar kiradi.

Siyosiy neologizmlar tarixida bir qator siyosiy atamalarning rivojlanishini kuzatish qiziq. Amerika siyosiy leksikonida bunday atamalar soni juda katta: political hireling – “siyosiy yugurdaklar” kabi uzoq vaqtdan beri shakllangan soʻz va tushunchalardan tashqari; political drudge – “shchan odam” (sergʻayrat xodim haqida); stooge – “siyosiy qoʻgʻirchoq” va boshqa yangidan-yangi atamalar paydo boʻlmoqda. Bular yuqorida aytib oʻtilgan wardheeler, wheelhorse, shuningdek, (party) hack, hanger-on, hangdog politician, hatchetman atamalari boʻlib, afsuski, bu soʻzlar

hozirgi zamon ikki tilli (tarjima) lug‘atlarida hali o‘z aksini topmagan va bunday sharoitda tarjimon o‘zining mustaqil xulosalari asosida o‘zining tarjima variantlarini taklif qilishi lozim bo‘ladi.

Wardheeler – “kamsituvchi-jirkanuvchi” ma’nosiga ega siyosiy atama bo‘lib, o‘zbek tilida uning ma’nosi mayda siyosatchi, xushomadgo‘ylik qiluvchi (o‘z xo‘jayiniga) kabi izohlarga muvofiq mos kelishi mumkin; og‘zaki nutqda ham qo‘llaniladigan wheelhorse atamasi Amerikaning izohli lug‘atlarida [4] atamaga nisbatan berilgan ta’rifni hisobga olgan holda, o‘zbekcha leksik birliklarga teng bo‘lib, ishchan odam, serg‘ayrat, mehnatkash, barcha ishlarni o‘zi qiladigan odam ma’nosiga to‘g‘ri keladi

Binobarin, drudge va wheelhorse atamalari ma’no jihatidan juda yaqin. Party hack – “siyosiy yollangan ishchi”. Hanger-on so‘zini tarjima qilish qiyin emas, chunki ma’no so‘zning o‘zi tomonidan aniq ifodalangan (qiyos. to hang-on – chirmashib olmoq): yugurdak, laganbardor. Hang-dog politician so‘zini yuvindixo‘r, xushomadgo‘y deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amerika siyosiy lug‘atida [5] hatchet-man so‘zi yaqinda paydo bo‘lib, u aniq tarzda so‘zlashuv tilidan kirib kelgan va siyosiy yordamchi, yugurdak sifatida tarjima qilinadi. Bu so‘zlarni ba’zan kengroq talqin qilishga to‘g‘ri keladi, ya’ni “boshqa a’zolarining partiya intizomiga rioya qilishlari va asosiy partiya qarorlarining bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs (boshliq nomidan)”.

Psixolingvistik tahlil nuqtai nazaridan, siyosiy sinonimlarning juda qiziqarli qatori 60-yillarning neologizmlarida ko‘zga tashlanadi. Bu so‘zlar ramziy yoki xayoliy kuchni bildiruvchi – straw man, paper tiger, stalking horse, satellite.

Umumiy adabiy frazeologiyada puppet government – qo‘g‘irchoq hukumat hammaga ma’lum. Shu bilan birga, yuqorida aytib o‘tilgan sinonimik turkumdagi eng yangi neologizmlar hatto tajribali tarjimonni ham hayratga solishi mumkin. Darhaqiqat, straw man (yoki man of straw) kabi siyosiy neologizmni qanday tarjima qilish lozim? Uning so‘zma-so‘z ma’nosi “poxol odam”. Bu metafora ekanligi aniq, shuning uchun bu metafora elementini o‘zbek tilida izohlash lozim. Ko‘rinishidan, “poxol odam”, “ishonchsiz odam” kabi variantlarni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin. Biroq, neologizm ma’nosini qayta ko‘rib chiqish yanada uzoqqa bordi. Zamonaviy siyosiy tilda straw man “saylovchilar e’tiborini boshqa nomzoddan chalg‘itish maqsadida ko‘rsatilgan qo‘g‘irchoq (soxta) nomzod” degan ma’noni anglatadi. Paper tiger neologizmi o‘zbek tilida “xavfli bo‘lmagan dushman” ma’nosida ishlatiladi.

Stalking horse iborasini qo‘llanish doirasini bilmay turib tarjima qilish juda qiyin. The American Heritage lug‘atida [6] stalking horse neologizmiga quyidagicha ta’rif beriladi: “any sham candidate put forward to conceal the candidacy of another

or divide the opposition” (“boshqa nomzodni yashirish yoki muxolifatni ichidan bo‘lib tashlash uchun ilgari surilgan har qanday soxta nomzod”). Chunki bunday batafsil talqinni tarjima varianti sifatida ishlatib bo‘lmaydi. uning asosida hech bo‘lmaganda asosiy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish kerak va keyin bu neologizmni soxta nomzod, qo‘g‘irchoq figura (siyosiy o‘yinda) sifatida tarjima qilish mumkin.

Yaqinda siyosiy tilda off the reservation atamasi paydo bo‘ldi, bu neologizm “partiya saflarida qolish, lekin partiya tomonidan ko‘rsatilgan nomzodni qo‘llab-quvvatlamaslik” degan ma‘noni anglatadi. Bu asosan siyosatchilar nutqida namoyon bo‘ladi va bu so‘z hatto ingliz tilida so‘zlashuvchilarning barchasiga ham ma‘lum bo‘lmasligi mumkin. Taking a walk atamasi esa “boshqa partiya nomzodini qo‘llab-quvvatlash” ma‘nosini bildiradi. Va nihoyat, bolting atamasi “boshqa partiya safiga o‘tishni” anglatadi. Ushbu neologizm asosan og‘zaki nutqda qo‘llanilgan va hozirda asta-sekin umumadabiy varianti switching to the other party ni siqib chiqarmoqda.

Shunday qilib, neologizmlar tarjimasi tarjimon uchun yetarli darajada murakkab vazifa hisoblanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ma‘lumki, yangi so‘z lug‘atga rasman kiritilgunga qadar ancha vaqt o‘tadi. Binobarin, tarjimon notanish so‘zning ma‘nosini o‘zi aniqlashi lozim bo‘lib, bu ko‘pincha katta professionallikni talab qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

- [1] – Ayto J. A Century of New Words. – Oxford: Oxford University Press, 2007.
- [2] – Concise Oxford English Dictionary [Electronic resource]. Mode of access: <http://www.concise-oxford-english-dictionary.en.softonic.com> (date of access: 25.10.2023).
- [3] – Dictionary by Merriam-Webster: America’s Most Trusted Online Dictionary. URL: <https://www.merriam-webster.com/> murojaat sanasi: oktabr –noyabr 2023 g.).
- [4] – New Oxford American Dictionary, Third Edition, Angus Stevenson and Christine A. Lindberg (editors), 2096 pages, August 2010, Oxford University Press, ISBN [978-0-19-539288-3](https://www.oxfordup.com/9780195392883).
- [5] – Peprník J. English Lexicology. – Olomouc: Univerzita Palackého, 2006.
- [6] – The American Heritage Dictionary of the English Language. Houghton Mifflin Harcourt, 2911.

